DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18141730

PSIXOLOGIYA FANI INSON TAFAKKURI RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Azizova Iroda Furqatovna
Qarshi xalqaro innovatsiyalar universiteti
“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixologiya fanining inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tafakkurning psixologiya fanlari orqali qanday tahlil qilinishini, fikrlash jarayonlarini yaxshilashda zamonaviy pedagogik va psixodidaktik metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Maqolada psixologiya fanini o‘qitish jarayonida tafakkurni rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi haqida ham fikrlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologiya, tafakkur, fikrlash, kognitiv rivojlanish, oliy ta’lim, ta’lim metodikasi.*

Kirish. Tadqiqotning dolzabligi: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida inson tafakkurini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortishi, tezkor qaror qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj va ijtimoiy-psixologik muammolarning ko‘payishi psixologiya fanining inson tafakkuriga ta’sirini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda psixologiya fanining nazariy va amaliy imkoniyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, psixologiya fanining inson tafakkuridagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish zamonaviy ilm-fan va ta’lim amaliyoti uchun muhim hisoblanadi.

Tafakkur insonning ijtimoiy-huquqiy, kasbiy va shaxsiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi [1]. Zamonaviy globallashuv va axborot asrida insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Psixologiya fanining vazifasi — tafakkur jarayonlari, ularning turlari va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish hamda bu bilimlarni amaliyotda qo‘llashdir [2].

Tadqiqot mavzusini o‘rganganlik darajasi: Ushbu mavzuni ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar o‘zlarining ilmiy –tadqiqot ishlari ko‘rib chiqqan va uni takomillashtirib borgan. Jumladan: Jan Piaje (Jean Piaget) – bolalarning kognitiv rivojlanishi va tafakkuri haqida, Lev Vigotskiy (Lev Vygotsky)– ijtimoiy muhit va nutqning tafakkur rivojiga ta’siri, Daniyel Kaneman (Daniel Kahneman)– inson qarorlari va fikrlash jarayoni psixologiyasi, Karl Rodjers (Carl Rogers) – shaxsiy rivojlanish va inson potensiali psixologiyasi, shuningdek, O‘zbekistondagi zamonaviy psixologlar tadqiqotlari: E. G‘. G‘oziyev, D.G. Muxamedova, S. A. Ikromova, O. S. Akhmedov, M. D. Sharopova, M.Ergashev va boshqalar. Ular inson tafakkurini chuqur tushunish, uni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash hamda psixologiya fanining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirishga muhim hissa qo‘shganlar.

Tadqiqot maqsadi: Psixologiya fanining inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyatini tadqiq etish.

Tadqiqot vazifalari:

1) psixologiya fanining asosiy nazariyalari va konsepsiyalarini tahlil qilish;

2) insonning fikrlash jarayoni va uning psixologik jihatlari haqida ma’lumot berish;

3) tafakkur rivojlanishi va psixologiya fanining bu jarayonga ta’sirini o‘rganish;

4) zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy asarlar asosida xulosalar chiqarish;

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqotda quyidagi metodologiyalar qo‘llaniladi:

Analitik usul – ilmiy adabiyotlar va mavjud tadqiqotlar tahlili.

Solishtiruv usuli – turli psixologiya nazariyalari va metodlarini solishtirish.

Empirik usul – psixologiya fanining inson tafakkuriga ta’sirini ko‘rsatuvchi ilmiy eksperimentlar va kuzatuvlar.

Statistik tahlil– empirik ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish. bu usullar tadqiqot natijalarini aniq va asosli ravishda tahlil qilish, tafakkur jarayonini ilmiy jihatdan o‘rganish hamda psixologiya fanining inson hayotidagi ahamiyatini xulosalarda aks ettirish imkonini beradi.

Tahlil va natiajalar: Tafakkur – bu insonning atrofdagi dunyo, voqea va muammolar haqida fikr yuritishi, ma’lumotlarni qayta ishlashi, ular asosida xulosa chiqarishi va qaror qabul qilishi jarayonidir. Sodda qilib aytganda, tafakkur – insonning fikrlash qobiliyatidir.Ya’ni:

1. Bilish va tushunish: ma’lumotlarni qabul qilish va ularni tushunish.

2.Tahlil qilish: faktlar va dalillarni solishtirish, o‘zaro bog‘liqliklarni ko‘rish.

3. Sintez qilish: turli ma’lumotlardan yangi xulosa yoki g‘oya chiqarish.

4. Qaror qabul qilish: muammoni hal qilish yoki yangi harakat rejasini tuzish.

Inson tafakkuri deganda, amaliy tafakkur, nazariy tafakkur, ijodiy tafakkur, tanqidiy tafakkurlarda namayon bo‘ladi.

Amaliy tafakkur- bu insonning real hayotda uchraydigan aniq vaziyat va muammolarni tahlil qilish, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tezkor va samarali qaror qabul qilishga qaratilgan fikrlash jarayonidir.

Misol uchun, Sardor maktabda psixologik fan bo‘yicha dars o‘rgandidan so‘ng o‘z tafakkurini rivojlantirish uchun hayotiy misol qiladi. U uyda xonadagi yoritilish yetishmasligi va stoldagi kitoblarning noto‘g‘ri joylashganini ko‘radi. Sardor avval vaziyatni tahlil qiladi, qanday qilib u yerda ishlash samarali bo‘lishini o‘ylaydi, so‘ngroq kitoblarni taqsimlab qo‘yadi va lampani to‘g‘ri joyga qo‘yadi. Bu jarayonda u nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga qo‘llaydi, mantiqiy va amaliy tafakkurini rivojlantiradi hamda muammoni o‘zining fikrlash qobiliyati orqali samarali hal qiladi.

Nazariy tafakkur- bu insonning hodisa va jarayonlarni umumiy qonunlar, nazariyalar va abstrakt tushunchalar asosida tahlil qilishi, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlashiga qaratilgan fikrlash jarayonidir..

Misol uchun, Farhod psixologik fandan dars o‘qiydi. U insonning xotirasi va diqqatini rivojlantirish metodlari haqida ma’lumot oladi, turli nazariy modellarni o‘rganadi, ularni tahlil qiladi, solishtiradi, lekin hozirda bu bilimlarni amalda qo‘llamaydi. Bu — **nazariy tafakkur,** chunki fikrlash jarayoni asosan bilim va tushuncha bilan bog‘liq, amaliy harakatlarsiz.

Ijodiy tafakkur — bu insonning mavjud bilim va tajribadan kelib chiqqan holda yangi g‘oyalar yaratishi, noan’anaviy yechimlar topishi va muammolarga original yondashuvni qo‘llashiga qaratilgan fikrlash jarayonidir.

Misol uchun, Sardor maktabda psixologiya fanidan topshiriq oldi: “Odamlarning stressini kamaytirish uchun yangi usul taklif qil.” U standart usullarni takrorlamay, balki uydagi kitoblar, musiqa va rasmlarni qo‘llab, shaxsiy “stressga qarshi kutubxona” konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu — **ijodiy tafakkur**, chunki u muammoni odatiy bo‘lmagan va yangi yo‘l bilan hal qildi.

Tanqidiy tafakkur- bu insonning ma’lumot va g‘oyalarni tahlil qilishi, ularning ishonchliligi va asosliligini baholashi, dalillar va xulosalar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish o‘rnatishiga qaratilgan fikrlash jarayonidir.

Misol uchun, Malika internetda bir maqola o‘qiydi: “Suv ichish har doim energiyani ko‘payatiradi.” U bu fikrni qabul qilishdan avval, manbalarni tekshiradi, tadqiqot natijalarini solishtiradi va hayotiy tajribasi bilan solishtiradi. So‘ng, u o‘z xulosasini chiqaradi: “Ha, suv organizm uchun foydali, lekin energiyani ko‘paytirishga ta’siri individual va doimiy emas” Bu — **tanqidiy tafakkur,** chunki Malika ma’lumotni befarq qabul qilmay, tahlil qiladi va asosli xulosa chiqaradi.

Psixologiya fanini o‘qitishda tafakkurni rivojlantirish quyidagi metodlar asosida olib borish maqsadga muvofiq.

1. Leksiya va seminarlar- an’anaviy leksiya usuli nazariy bilimlarni yetkazishda samarali bo‘lib, tafakkurning asosiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi [2]. Seminar mashg‘ulotlari esa analitik fikrlash va muammoli savollarga javob berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Keys-stadi metodi- keys-stadi talabalarga voqea va vaziyatlar orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi [5]. Masalan, shaxsiy va ijtimoiy muammoli holatlar tahlili orqali tafakkurning muammoni hal qilish va ijodiy yechim topish qobiliyati rivojlanadi.

3. Rolli o‘yinlar va debatlar- rolli o‘yinlar va debatlar tafakkurning ijodiy va tanqidiy jihatlarini rivojlantirishda samaralidir [6]. Ular talabalarni qaror qabul qilishga, argumentlar keltirishga va muammoli vaziyatlarda tez va to‘g‘ri yechim topishga o‘rgatadi.

4. Elektron va multimedia vositalari- multimedia taqdimotlar, video va interaktiv platformalar orqali tafakkurning vizual va konseptual rivojlanishi ta’minlanadi [4]. Shu bilan birga, elektron treninglar va virtual keyslar orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati kuchayadi.

Psixologiya fanini inson tafakkurini rivojlantirish maqsadida qo‘llash natijasida:

- talabalarda analitik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi;

-muammoli vaziyatlarda ijodiy yechimlar topish qobiliyati oshadi;

-shaxsiy va kasbiy qaror qabul qilish malakasi yuksaladi;

- kommunikativ va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarga asosan quyidagilarni **xulosa** qilishimiz mumkin: Psixologiya fani inson tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar orqali tafakkurni rivojlantirish samaradorligi oshiriladi.

Tafakkur turlari — amaliy, nazariy, ijodiy va tanqidiy — har biri insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Psixologiya fanini ta’lim jarayonida samarali qo‘llash orqali talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik va psixodidaktik usullar, jumladan keys-stadi, rolli o‘yinlar, debatlar va elektron platformalar tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Psixologiya fanining ta’limda samarali joriy etilishi talabalarda muammoli vaziyatlarda ijodiy yechimlar topish va samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati- psixologiya fanining tafakkur rivojlanishiga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi, bu zamonaviy pedagogik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tafakkur turlarining konseptual tavsifi va ularning rivojlanishi mexanizmlari ilmiy bilimlarni boyitadi va amaliyotda qo‘llanishi uchun asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari yuqori ta’lim muassasalarida psixologik fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish va kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Педагогическая психологиЙ. – Москва: Просвещение, 2019. – Дарслик, 432 б.

2. Немов Р.С. ПсихологиЙ. – Москва: Юрайт, 2020. – Дарслик, 380 б.

3. Кузмина Н.В. Методи обучения в висшей школе. – Санкт-Петербург: Питер, 2018. – Дарслик, 256 б.

4. Подласий И.П. Педагогика. – Москва: Академия, 2021. – Дарслик, 400 б.

5. Дewей Ж. Эхпериенсе анд Эдусатион. – Hew Ёрк: Масмиллан, 1938. – Дарслик, 78 б.

6. Вйготскй Л.С. Минд ин Сосиетй: Тҳе Девелопмент оф Ҳигҳер Псйчологисал Процессес. – Самбридге: Ҳарвард Университй Пресс, 1978. – Дарслик, 159 б.

7. Колб Д.А. Эхпериентиал Леарнинг: Эхпериенсе ас тҳе Соурсе оф Леарнинг анд Девелопмент. – Энглewоод Слиффс: Прентисе Ҳалл, 1984. – Дарслик, 201 б.